



ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA URF-ODATLAR VA NAQSHLARNING O'RNI

Sherimbetov Baxodir,

Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi filiali
Ellikqal'a tumani arxeologiya va tarix muzeyi katta ilmiy xodimi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19606676>

Anotatsiya. Mazkur maqolada etnografik tadqiqotlarda urf-odatlar va naqshlarning tutgan o'rni, ularning ijtimoiy, ramziy hamda madaniy ahamiyati keng yoritiladi. Shuningdek etnografiya tushunchasi, etnografiya faninig kelib chiqishi, xalqlarning kelib chiqishi haqida ilk ma'lumotlar, arxeologik qazishmalar, qadimiy manbaalardagi ma'lumotlar, xalqlarning urf-odatlarining o'rganilishi, xalq so'zining ma'nosi, ularning turlari, urf –odatlar haqida tushunchalar, naqsh so'zining ma'nosi, milliy naqsh qo'llaniladigan amaliy san'at turlari tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: Etnografiya, sotsiologiya, ekspeditsiya, ijtimoiy xulq-atvor, urf-odat, marosimlar, hunarmandchilik, naqsh, me'morchilik, o'yakorlik, koshinkorlik, bezak, kashtachilik, zardo'zlik, kulolchilik, gilamdo'zlik.

Annotation. This article extensively highlights the role of traditions and ornaments in ethnographic research, their social, symbolic and cultural significance. The concept of ethnography, the origin of the science of ethnography, early information about the origin of peoples, archaeological excavations, information from ancient sources, the study of the customs of peoples, the meaning of the word folk, their types, concepts of customs, the meaning of the word pattern, and types of applied art in which national patterns are used are also studied.

Key words: Ethnography, sociology, expedition, social behavior, custom, ceremonies, handicraft, ornament, architecture, woodcarving, tilework, decoration, embroidery, gold embroidery, pottery, carpet weaving.

Mustaqillik o'zbek xalqi tarixida yangi uyg'onish davrini boshlab berdi. Bu jarayonning dastlabki bosqichidayoq milliy o'zliugini anglashga bo'lgan intilish ancha kuchaydi. hamda o'tmish tarixga, ajdodlarimizning shonli yo'li va boy ma'naviy merosiga holisona nazar tashlashga kirishildi. Mustaqillik davrida O'zbekistonda yuz berayotgan keng qamrovli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy o'zgarishlar tarixni chuqur va xolisona tarzda hamda teran tafakkur asosid ilmiy tadqiq etishni taqozo etmoqda. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kununi unutgan millatning kelajagi yo'q. Darxaqiqat, Yurtboshimiz tarixchilar oldiga qo'ygan eng dolzarb va ustuvor vazifalardan biri o'zbek xalqining kelib chiqishi (etnogenezi) va milliy davlatchiligimiz tarixini xolisona tadqiq etishda etnografiya – elshunoslik (xalqshunoslik) fani ham salmoqli o'ringa egadir. Etnografiya ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lib, uning asosiy tadqiqot ob'ekti er yuzidagi barcha etnoslar – urug' – qabilalar, elatlar, xalqlar va millatlar xisoblanadi. Etnografiya fani qadimgi yunoncha "etnos" (xalq) va "grafo" (yozish, ta'riflash) degan so'zlardan tashkil topgan. Uning tub ma'nosini "xaqni ta'riflash" yoki "xalqshunoslik" deb izoxlash mumkin. Xalqlarning o'zaro tafovuti yoki umumiyliigi va o'xshashligini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini



o'rganuvchi fan soxasi “etnografiya deb ataladi. Etnografiya atamasini XVI asrning oxirida birinchi bo‘lib nemis yozuvchisi Iogan Zumner isssshlatgan, keyin esa XVIII oxirlarida va 1808 yilda maxsus jurnallar shu nom bilan chiqq boshlagan. Jaxonda eng qadimgi yozuvlar xisoblanmish ierogliflar, shumer va mixxat qoyatosh bitiklari guvoxlik berishicha, qadimgi Misr, Messopotamiya va Eronda qo‘shni va uzoq xalqlar, elatlar to‘g‘risida yaxshi bilganlar. Yohudiylarning qadimiy muqaas kitobi Tavrot (Bibliya) miloddan avvalgi XIII – V asrlar oralig‘ida turli janrdagi har - xil adabiy asarlar yig‘indsidan tashkil topgan va taxminan V asrlarda to‘plab kodifikasiya qilingan. Tavrotda tilga olingan xalqlar haqiqiy shajaraga asos bo‘lmasada, qadimgi ko‘chmanchi xalqlarning o‘troqlikka o‘tishdagi turmush tarzi va madaniy xayoti, turli shakllarini ifodalovchi rivoyatlar deb baxolash mumkun.

Etnografiya fani, boshqa fanlar singari o‘ziga xos tadqiqot usullari va maxsus atamalarga ega. U o‘z tadqiqotlarini ayrim fan soxalari bilan aloqador xolda amalga oshiradi. Ayniqsa u antropologiya, arxeologiya, lingvistika, sotciologiya, san‘atshunoslik kabi fanlar yutuqlaridan keng foydalanadi. Ma‘lumki, “xalq” tushunchasi bir necha ma‘noga ega. Ba‘zan oddiy tilda bir to‘p kishilarni yoki avomnixalq desak, ba‘zan bir necha elat va millatlardan tashkil topgan davlat yoki mamlakat axolisini ham xalq deb ataymiz. Aslida xalq so‘zi arabcha yaratmoq demadir. Etnografiyada “madaniyat” deyilganda, asosan inson qo‘li va aql idroki bilan yaratilgan barcha moddiy va ma‘naviy boyliklar tushuniladi. Etnografik jixatdan moddiy madaniyatga xo‘jalik va transport vositalari, turar joy va xovlilar, uy-ro‘zg‘or buyumlari va jixozlari, kiyim kechak va bezaklar, taom va idish tovoqlar, baiiy buyumlar kiradi. Ma‘naviy madaniyat deyilganda, etnoslarning milliy his-tuyg‘ulari va tabiyati, urf – odat va marosimlari, xalq o‘yinlari va sayillari, raqs va kuylari, og‘zaki ijodi, diniy tasavvurlari va xokazolari tushuniladi. Ilk yozma manbalardan qadimgi Yunoniston va Rim mualliflarinig asarlarida Orol bo‘yi va Oks (Amudaryo) hamda Yaksart (sirdaryo), Movarunnaxr va Baktriyada yashagan qabila va elatlar tilga olinadi. Markaziy Osiyo xalqlarinig eng qadimiy ajdolari va ularning tuad joylari, urf- odatlari va marosimlari to‘g‘risia noyob ma‘lumotlarni bizgacha etib kelgan zardushtiylik dininig muqaddas kitobi “Avestoda” ko‘rish mumkin. Arab xukmronligi o‘rnatilgandan keyingi davrlarda (IX – XII asrlar) mashxur tarixchi, geograf olim ABU Ja‘far ibn Muxammad ibn Jarir at-Tabariy va sayyoxlar Ibn Hurdodbek, al-Balxiy va boshqalar o‘z asarlarida zamondosh elatlar to‘g‘risida boy ma‘lumotlar yozib qoldirganlar. Turkiy xalqlar, shu jumladan o‘zbeklar etnografiyasi va etnik tarixiuni o‘rganishda o‘rta asr lar mualliflaridan Maxmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” nomli asari aloxida o‘ringa egallayi. Kitobda o‘zbeklarning qadimiy ajdodlarian chigil, yag‘mo, qarluq, qipchoq, tuxsi va boshqa qabilalarning ijtimoiy va oilaviy turmushi, turli urf-odat va marosimlari, diniy e‘tiqodlari va tassavurlari kabi ayrim etnografik xususiyatlarni aniqlashga yordam beradigan izoxlar mavjud. Xalq maaniyati deyilganda keng ma‘noda etnosning hayotiagi barcha qadriyatlar tushunilsa ham uningtub ma‘nodagi negizini xalq an‘analari hosil qilai. [1, b. 6,9,10,11,12,14,15-b]



Etnologiya fanida “marosim”, “urf-odat”, “an’ana”, “bayramlar fanning asosiy tadqiqot o’behti tarzida keng qo’llaniladi. Chunki har bir xalqning shakillanish jarayoni bilan birga unga xos va mos milliy-etnik an’analar, urf-odatlar, marosimlar, bayram va sayllar shakllanib, taraqqiy etib boradi. An’ana- tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga kelgan, ajdodlardan avlodlarga merod bo’lib o’tadigan, kishilar madaniy hayotiga ta’sir o’tkazaigan maaniy hoisadir. An’ana o’ziga xos ijtimoiy doida tarzida kishilar ongiga singgan, qabul qilingan tartib va qoifalar majmuasi hisoblanadi.

Urf-odat tushunchasi esa o’ta keng bo’lib, u o’z ichiga xalq hayotining barcha tomonini – oddiy kundalik udum, radm-rusm, irim-sirimlar, o’zaro muomala tarzi hamda barcha marosimlarni butuncha qamrab oladi.

Urf-odat kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddat takrorlanib turuvchi xatti-xarakat, ko’pchilik tomondan qabul qilingan xulq-atvor qoialari ko’nikmadir.

Shuningdek marosim – inson hayotining modiy va ma’naviy turmushining talab va ehtiyoji bilanyuzaga kelgan va keladigan hodisadir. Boshqacha aytganda, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo’lgan hayotiy tadbirdir. Urf-odat bir vaqtning o’zida bir shaxs yoki bo’lmasa ko’pchilik tomonidan bajarilishi shart bo’lgan qoida bo’lsa, marosim belgilangan shaxslar tomonidan bajarilidhi lozim bo’lgan xatti-harakatdir. 1. Urf-odatlar bilan marosim orasidagi o’zaro farqni ular ichidagi ramziy harakatlarning qo’llanish darajasi orqali ham anglab olish mumkin. Jumladan, urf-odat o’z ichiga ramziy va ramziy bo’lmagan harakatlarni to’la qamrab olsa, marosim faqat ramziy xarakterdagi xatti-harakatlarnigina qamrab oladi. Qolaversa urf-odat muayyan xalq uchun, asosan, bir xil – o’zgarmas qoida, norma bo’lsa, marosim bir xil xalq doirasida keskin lokal farqlanishlarga xam ega bo’ladi. Shuningdek, har qanday marosim o’zi mansub bo’lgan xalq urf-odatlarining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Urf-odat va marosimlar maishiy turmush va oila hayoti bilan bo’g’langan ijtimoiy hodisadir. Urf-odat va marosimlar jamiyat taraqqiyotining ilk davrlaridanoq shakllanib, rivojlanib kelgan. Kishilar o’z hayotlari davomida ko’plab urf-odat va marosimlarda ishtirok etishga tortiladilar, bevosita uning qatnashchilariga aylanadilar. Har qanday urf-odat va marosimlar muayyan etnosning boshqa etnoslardan farqlanib turushini ta’minlovchi muhim etnografik belgilardan biridir. [2, B. 182,185,186,188]

Milliy naqshlarimiz g’oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiqlagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg’u asboblari, uy-ro’zg’or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo’lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi, me’morchilik hamda tasviriy san’at rivoji bilan bog’langan xolda takomillashib bordi.

Naqsh – arabcha tasvir, gul degan ma’noni anglatadi. Quyosh, hayvon, o’simlik geometrik va boshqa elementlarni ma’lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado’zlikda, zardo’zlik, kulolchilik,



zargarlik, gilam to‘qish, to‘qimachilik, inkrustasiya, panjaralar va hokazolarda har xil yo‘llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan, o‘yib, chizib, chok yordamida, zarb bilan qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi. Naqqoshlik saqn’ati tarixi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadimiydir. O‘zbekiston hududidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, Sug‘d, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san’atining rivojlanganligi ma’lum. Olimlarimiz Surxandaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asr), Dalvarzintepa (I asr) budda ibodatxonalarida qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab berganlar. Naqsh o‘zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamroh bo‘lib kelgan. XI-XII asrlarda O‘zbekiston territoriyasida arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko‘p ishlatilgan. O‘zbek binosining ichki qismidagi har bir me’moriy qismi o‘ziga xos ornamental bezak tipidan tashkil topgan. Bir-birini kesib o‘tgan be’xisob chiziqlar, har xil burchakli va qirrali yulduzlardan tarkib topgan geometrik naqshlar girih deb yuritiladi. Girih – forscha, chigal, tugun degan ma’noni anglatadi. Girih chizadigan ustalar nihoyatda kam qolgan. Girih ma’lum mazmunga va xarakterga ega bo‘ladi. O‘zbek xalqining qarovsiz yotgan madaniyat durdonalari, tarixiy yodgorliklarini saqlash va madaniy merosini to‘plashni davlatimiz o‘z zimmasiga oldi. Madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyati tuzildi. Naqqosh ustalar ham boshqa ustalar qatori machit, madrasa, turar joylarni, saroylarni ta’mirlashni boshlab yubordilar. [3, B. 6,7,10,11]

Xulosa. Xar bir xalqning etnografiyasi, urf-odatlarini, milliy naqshlarini uning o‘ziga xosligini, milliyligini boshqa xalqlardan ajratib turadi. Tariximiz, madaniyatimiz xalqimizning milliy boyligidir. Uni asrab avaylash xalqimizning xar bir vakili uchun o‘ta muxim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. Toshkent: Universitet, 2007.
2. Ashirov A. Etnologiya TOSHKENT “YANGI NASHR” 2014
3. .S.Bulatov, N.G‘ulomova Naqsh tuzulishining geometrik asoslari 2014.